

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

FAYZULLAYEV XAYRIDIN ALIMURODOVICH

**TUPROQNI POLIZ EKINLARI EKISH UCHUN TAYYORLASH BILAN
BIRGA PLYONKA YOTQIZADIGAN MASHINA ISHLAB CHIQISHNING
ILMIY-TEXNIK YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Oglavleniye avtoreferata doktorskoy (DSc) dissertatsii
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Fayzullayev Xayriddin Alimurodovich

Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashina ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari 3

Файзуллаев Хайридин Алимуродович

Научно-технические решения разработки машины для подготовки почвы к посеву бахчевых культур с одновременной укладкой пленки..... 25

Fayzullayev Khayriddin Alimurodovich

Scientific and technical solutions for the development of a machine for preparing the soil for sowing melons with simultaneous laying of film..... 49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

FAYZULLAYEV XAYRIDIN ALIMURODOVICH

**TUPROQNI POLIZ EKINLARI EKISH UCHUN TAYYORLASH BILAN
BIRGA PLYONKA YOTQIZADIGAN MASHINA ISHLAB CHIQISHNING
ILMIY-TEXNIK YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/T950 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.kstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mamatov Farmon Murtozevich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudayarov Berdirasul Mirzayevich

texnika fanlari doktori, professor

Batirov Zafar Lutfullayevich

texnika fanlari doktori, dotsent

Abdulxayev Xurshed G'afurovich

texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi Davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil "12" avgust soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Xonobod ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi Davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (146 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180119, Qarshi sh., Xonobod ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "2" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 02.08 da № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.T.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

D.Sh.Chuyanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

E.U.Eshdavlatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ochiq dalalarda poliz va sabzavot ekinlarini yetishtirish, ulardan erta hosil olish uchun energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo'lgan tuproqni ekishga tayyorlaydigan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallaydi. "Dunyo miqyosida poliz va sabzavot ekinlari yetishtiriladigan maydon 1,6 mlrd. gektarni tashkil etishini hisobga olsak"¹, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor tuproqni ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashinalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, daladan bir o'tishda yerlarga yo'lakli asosiy ishlov berish va uni ekishga tayyorlash bilan birga sug'orish shlanglarini va plyonka yotqizadigan kombinatsiyalashgan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda poliz va sabzavot ekinlarini plyonka ostiga ekishdan oldin dalalarga asosiy ishlov berish va uni ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, bir o'tishda tuproqqa ishlov berish va uni plyonka ostiga ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashinalarni ishlab chiqish hamda ularning texnologik jarayoni va ishchi qismlarining parametrlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu yo'nalishda lalmi maydonlarda tuproqqa yo'lakli ag'dargichsiz ishlov beradigan, uni ekishga tayyorlaydigan, sug'orish shlanglari va plyonka yotqizadigan qismlardan iborat kombinatsiyalashgan mashinalarni ishlab chiqish hamda ular ish organlarining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonida resurs-tejamkorlikni ta'minlash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Respublikamiz polizchiligida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, innovatsion texnologiyalar asosida erta hosil yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, ochiq dalalarni plyonka ostida ekishga tayyorlashda kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta'minlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, "...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash..."² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, lalmi maydonlarda tuproqqa yo'lakli ag'dargichsiz ishlov berib, uni ekishga tayyorlaydigan, sug'orish shlanglari va plyonka yotqizadigan texnik va texnologik jihatdan innovatsion kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqish hamda uning talablar darajasidagi ish sifati kam energiya sarflagan

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni

holda ta'minlaydigan ishchi qismlarining parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli, 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-sonli Farmonlari hamda 2017-yil 7-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3117-sonli, 2019-yil 31-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4410-sonli, 2023-yil 29-martdagi "Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo'jaligi texnika-lari bilan ta'minlashni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-103-sonli Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-iyuldagi "Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Ko'kdala ilmiy-tajriba stansiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 377-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini plyonka ostiga yetishtirish uchun daladan bir o'tishda yerlarga asosiy ishlov berish va uni ekishga tayyorlash bilan birga sug'orish shlanglari, plyonka yotqizish texnologiyalari va texnik vositalarini ishlab chiqish hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Cornell University, Pennsylvania State University (AQSH), University of Hohenheim, University of Göttingen (Germaniya), Rossiya davlat agrar universiteti - K.A.Timiryazev nomidagi MQXA, Butunrossiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), Belarus davlat agrar texnika universiteti (Belorus Respublikasi), Volgograd davlat agrar universiteti, Ukraina qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, Latviya qishloq xo'jaligi universiteti (Latviya), Xitoy agrar universiteti (CAU), Xitoy qishloq xo'jaligi universiteti, Xebey qishloq xo'jaligi universiteti (Xitoy), Qirg'iziston xalqaro agrar universiteti, TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti (O'zbekiston) keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tuproqqa ishlov berishda energiya-resurslar sarfini kamaytirishni ta'minlashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish uchun dalalarga sug'orish ariqlarini shakllantirish bilan birga plyonka yotqizadigan qurilma yaratilgan (Qirg'iziston xalqaro agrar universiteti), tuproqqa ishlov berib poliz ekinlarini ekish

uchun tayyorlangan dalalarda plyonka va tomchilatib sug'orish shlanglarini yotqizadigan qurilma ishlab chiqilgan (Xitoy Xebey qishloq xo'jaligi universiteti), ekinlarni ekish uchun ag'darmasdan ishlov berib tuproqni ekishga tayyorlash texnologiyalari va mashinalari yaratilgan (Rossiya davlat agrar universiteti - K.A.Timiryazev nomidagi MQXA (Rossiya Federatsiyasi), Butunrossiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), "Alice Chalmers" firmasi (AQSH), "Overum" firmasi (Shvetsiya)), tuproqqa ag'darmasdan ishlov berish va bir vaqtda uni ekishga tayyorlash texnologiyalariga asoslangan texnik vositalar ishlab chiqilgan (Butunrossiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), "Lemken" firmasi (Germaniya), Chelyabinsk davlat agrar universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston)), tuproqqa ag'darmasdan ishlov beradigan ish organlarning konstruksiyalari va parametrlari nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida maqbullashtirilgan (Volgograd davlat agrar universiteti, Rossiya davlat agrar universiteti - K.A.Timiryazev nomidagi MQXA (Rossiya Federatsiyasi), Ukraina qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti)), ekinlarni ekish uchun yuza yumshatib va ag'darmasdan ishlov berib tuproqni ekishga tayyorlash texnologiyalari va mashinalari yaratilgan (Germaniya); Volgograd davlat qishloq xo'jalik akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi); Donsk davlat agrar universiteti (Rossiya Federatsiyasi); Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston), tuproqqa ishlov berishda energiya sarfini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun tuproqqa ishlov berish mashinalarining qamrash kengligi va ish tezligini oshirish, ish organlari ishchi yuzalarini nona materiallar bilan qoplash kabi usullar ishlab chiqilgan (Michigan State University, University of Illinois (AQSH), The Institute of agricultural engineering (Angliya), University Bologna, Institute for agricultural mechanization (Italiya)).

Jahonda poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish texnologiyalari va texnik vositalarini takomillashtirish bo'yicha qo'yidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: energiya va mehnat sarfini kamaytirgan holda tuproqni potensial hosildorligini saqlaydigan, suv sarfini tejaydigan va ekinlardan yuqori hosil olishni ta'minlaydigan, takomillashgan, tuproqni himoyalaydigan ishlov berish usullarini amalga oshirish; har xil texnologik jarayonlarni bir vaqtda o'tkazishni ta'minlaydigan kombinatsiyalashgan mashinalarni yaratish; ag'dargichsiz ishlov berish texnologiyasi va uni amalga oshiradigan ishchi organlari asosida tuproqqa sifatli ishlov berish, plyonka yotqizish xududini talablar darajasida tekislash-zichlash, plyonka chetki qismlarini ko'mish uchun eni va chuqurligi o'zgarmas ariqchalar hosil qilish, plyonkani yotqizishda shikastlanmasligini ta'minlaydigan ish organlardan foydalanish, ariqchalarga yotqizilgan plyonkani bahorgi turli shamollar ta'sirida ochilib qolmasligini ta'minlab tuproqni plyonka ustiga me'yor darajasida yotqizib ketishini amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan mashina ish organlarini yaratish bo'yicha ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Poliz va sabzavot ekinlari ekish uchun tuproqni ekishga tayyorlaydigan mashinalar yaratish, ular ishchi qismlarining texnologik ish jarayonlari va parametrlarini asoslash hamda takomillashtirish bo'yicha xorijda G.Ye.Listopad, A.N.Gudkov, A.F.Ulyanov, I.S.Yegorov, V.A.Fedorov,

B.N.Yemelin, L.N.Chaban, S.S.Litvinov, M.F.Stepuro, V.I.Malyukov, N.Ye.Rudenko, S.D.Strekalov, O.N.Terexov, V.G.Abezin, V.N.Aldoshin, B.P.Lusenko, Ye.Yu.Rakov, V.V.Chalenko, R.D.Ovezov, M.N.Shaprov, V.P.Boromenskiy, A.Yu.Nesmiyan, S.V.Asaturyan, V.V.Doljikov, V.N.Belokon, V.I.Pindak, A.V.Xarlashin, V.A.Motorin, I.S.Martinov, N.I.Djabborov, O.N.Byespalova, A.N.Seplyayev, A.V.Belyakov kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu yo'nalishda Respublikamizda A.D.Em, V.N.Jukov, F.M.Mamatov, A.To'xtaqo'ziyev, O.P.Auyezov, B.K.Utepbergenov, K.M.Ermatov, B.S.Mirzayev, B.P.Shaymardonov, S.A.Qunduzov, D.Sh.Chuyanov, A.E.Qodirov, H.A.Ravshanov, I.G.Haydarov, G'.X.Ergashev, I.I.Ismailov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Olib borilgan mazkur tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan mashina va qurollar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Ammo, mazkur tadqiqotlarda bir o'tishda plyonka ostida ertachi poliz yetishtirish uchun tuproqni ekishga tayyorlash bilan birga sug'orish shlanglari va plyonka yotqizib ketadigan mashinaning kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta'minlaydigan ishchi qismlarining parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F2-01 "Energiya-resurstejamkor egatsiz tekis shudgorlaydigan kombinatsiyalashgan pluglar va ular asosidagi turli texnologik jarayonlarni bir o'tishda bajaradigan mashinalarni yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2017-2020 yy.) va A-13-059 "Tuproqqa ishlov berish va poliz ekinlarini ekish texnologiyasi va kombinatsiyalashgan agregatni ishlab chiqish" (2006-2008 yy.) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish uchun tuproqni qisqa muddatlarda ekishga tayyorlash, tuproq strukturasi buzilishi va zichlanishidan himoya qilish, suv va energiya-resurslarni tejashni ta'minlaydigan mashinani ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish uchun tuproqni tayyorlaydigan texnologiyalar va mashinalarga oid ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar hamda mazkur yo'nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy tadqiq qilish;

lalmi maydonlar tuprog'ini plyonka ostida poliz ekinlari yetishtirish texnologik jarayoniga ta'sir etuvchi fizik-mexanik xossalarini aniqlash;

lalmi maydonlarda plyonka ostida poliz ekinlari yetishtirish uchun bir o'tishda tuproqqa yo'lakli ag'dargichsiz ishlov berish, uni ekishga tayyorlash, sug'orish shlanglari va plyonka yotqizish texnologiyani ishlab chiqish;

lalmi maydonlarda tuproqqa yo'lakli ag'dargichsiz ishlov beradigan, uni ekishga tayyorlaydigan, sug'orish shlanglari va plyonka yotqizadigan qismlardan iborat kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi va uning ishchi qismlarini o'zaro joylashishini asoslash;

kombinatsiyalashgan mashinaning ishchi qismlari parametrlarini asoslash;

kombinatsiyalashgan mashinaning tajriba nusxasini yasash va sinovlarini

o'tkazish, uni qo'llashdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida lalmi maydonlar tuprog'ining fizik-mexanik xossalari, ochiq dalalarda plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan kombinatsiyalashgan mashina hamda uning ish organlari olingan.

Tadqiqotning predmeti ochiq dalalarda plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashina ish organlarining tuprog' bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlari va ularning parametrlari, kombinatsiyalashgan mashinani energetik va sifat ko'rsatkichlarini uning ish organlarining parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish, tenzometriya usullari hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tuproqqa ag'dargichsiz ishlov beradigan, shudgor yuzasini tekislab zichlaydigan va plyonka yotqizadigan ishchi qismlardan tashkil topgan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruksiyasi va texnologik ish jarayoni ishlov berilgan yo'lakni sifatli ekishga tayyorlash va plyonkani talablar darajasida yotqizilishini hisobga olinib ishlab chiqilgan;

tekislagich-zichlagichning konstruksiyasi va parametrlari plyonka yotqiziladigan yo'lak tuprog'ini talablar darajasida sifatli tekislash va zichlashni ta'minlashini hisobga olinib ishlab chiqilgan;

mashinaning tuproqqa ag'dargichsiz ishlov beradigan ishchi qismi universal panjasi va qiya tutqichli "paraplau" turidagi ish organlari parametrlari hamda ularni o'zaro joylashishi kam energiya sarf qilgan holda belgilangan chuqurlikda tuproqni talablar darajasida sifatli yumshatilishini ta'minlashini hisobga olgan holda asoslangan;

mashina ishchi qismlari orasidagi bo'ylama va ko'ndalang masofalar deformatsiyalangan tuproqni to'siqsiz siljishini hisobga olgan holda asoslangan;

kombinatsiyalashgan mashinaning ariqcha ochadigan va plyonka chetki qismlarini ko'madigan disksimon ish organlarining parametrlari plyonka chetki qismlarini talablar darajasida ko'milishini hisobga olgan holda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ochiq lalmi maydonlarda plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashina ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan mashina ochiq lalmi maydonlarda plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizishda qo'llanilganda energiya va resurs sarfi kamayishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, kombinatsiyalashgan mashina ishchi qismlari ish organlarining parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika

uslublari bilan ishlov berilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining oʻzaro adekvatligi, kombinatsiyalashgan mashina dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ochiq lalmi maydonlarda plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashina ishlab chiqilganligi, ish organlari sifat va energetik koʻrsatkichlarini ularning parametrlariga bogʻliqligini ifodalovchi bogʻlanish hamda regressiya tenglamalari olinganligi, ulardan shunga oʻxshash mashinalarni ishlab chiqishda qoʻllash mumkin ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashina bilan agrotexnika talablari darajasida ochiq lalmi maydonlarda plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni sifatli tayyorlash bilan birga plyonka yotqizilishi, yonilgʻi-moylash materiallari, mehnat sarfi va foydalanish xarajatlarini kamaytirishga va ish unumini oshirishga erishilganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashina ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlarda olingan natijalar asosida:

poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish uchun tuproqqa ishlov berish usuli va tuproqqa ishlov beradigan qurolga Rossiya Federatsiyasi intellektual mulk boʻyicha Federal xizmatining ixtiroga va foydali modelga patentlari olingan (“Способ обработки почвы для возделывания бахчевых культур под пленкой” RU 2770604-2021 y., “Почвообрабатывающее орудие для бахчевых культур”, RU 190971-2019 y., “Почвообрабатывающий агрегат для возделывания бахчевых культур под пленкой”, RU 2768978-2021 y.). Natijada plyonka yotqiziladigan yoʻlakka ishlov beradigan va uni ekishga tayyorlaydigan mashinaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

tuproqqa agʻdarmasdan ishlov beradigan ishchi organlarga Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasining foydali modellarga patentlari olingan (“Agʻdargichsiz tuproqqa ishlov berish qurolining ishchi organi”, № FAP 00656-2011 y., “Yerni agʻdarmasdan haydaydigan va unga ishlov beruvchi qurolning ishchi organi” № FAP 00719-2012 y.). Natijada tuproqqa sifatli ishlov berilishi va undagi namni saqlanishini taʼminlaydigan ish organlar konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaga dastlabki talablar va texnik topshiriq tasdiqlangan (Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/04-04-140-son maʼlumotnomasi). Natijada plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni agrotexnik talablar darajasida tayyorlash bilan birga plyonka yotqizishni amalga oshiradigan mashinaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinani ishlab chiqarishni oʻzlashtirish uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq, texnikaviy shartlar va chizmalar) “BMKB-Agromash” AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy

markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/04-04-140-son ma'lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega bo'lgan plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaning sanoat nusxalarini ishlab chiqarish imkoni yaratilgan;

plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizish uchun mashina O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi fermer xo'jaliklarida, jumladan Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/04-04-140-son ma'lumotnomasi). Natijada plyonka ostiga poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash bilan birga plyonka yotqizishda yonilg'i sarfi 1,75 martaga va foydalanishdagi xarajatlar 52 foizga kamaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 2 ta foydali modelga patentlari va Rossiya Federatsiyasi tomonidan 3 ta ixtiroga hamda 1 ta foydali modelga patentlari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning qo'yilishi va tadqiqotning vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida Respublikamizda lalmi maydonlarda poliz ekinlarini plyonka ostida yetishtirishning afzalliklari, dunyo polizchiligi va Respublikamizda poliz ekinlarini yetishtirish ko'rsatkichlari, poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlaydigan mashina va qurilmalar, ularni ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, chuquryumshatkichlar, tekislagich-zichlagichlar va disksimon ishchi organlari bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

O'zbekiston sharoitida poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlashning mavjud texnologiyalari alohida-alohida agregatlar bilan ketma-ket bajariladigan shudgorlash, dala yuzasini tekislash, chizellash, boronalash, molalash hamda qo'l

mehnati yordamida plyonkani chetki qismlarini ko'mish uchun ariqchalar ochish, plyonkani yotqizish va plyonkaning chetki qismlarini tuproq bilan ko'mish kabi agrotexnik tadbirlaridan tashkil topgan bo'lib, ular ko'p vaqt, mehnat, energiya, yonilg'i sarfini oshishiga, tuproqdagi namlikni yo'qotilishiga, strukturasi buzilishiga, zichlanishiga hamda poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni tayyorlash muddatining cho'zilib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, O'zbekistonning lalmi maydonlari tuproq iqlim sharoiti uchun poliz ekinlarini plyonka ostida ekish uchun tuproqni ekishga tayyorlash bilan bir vaqtda plyonka yotqizadigan mashina va qurollar ishlab chiqilmagan.

O'tkazilgan tahlillarni ko'rsatishicha, lalmi maydonlarda plyonka ostida poliz ekinlarini ekish uchun tuproqni qisqa muddatda ekishga tayyorlash, ishlov berish sifatini oshirish, yonilg'i sarfi, mehnat va boshqa xarajatlarni kamaytirishga tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinalarni qo'llab erishish mumkin. Bunda lalmi maydonlarda poliz ekinlarini plyonka ostida ekishga tayyorlash muddati 2-3 barobarga kamayadi, plyonka ostida tuproqning namligi yetarli saqlanadi, poliz ko'chatlarini o'sishi uchun qulay iqlim sharoit yaratiladi, ko'chatlarni unuvchanlik darajasi oshadi, moddiy va energiya resurslari tejraladi, ya'ni agregatlarning daladan o'tishlar soni 4-5 martagacha kamayishi hisobiga tuproqqa minimal ishlov berilishini ta'minlanadi.

Dissertatsiyaning **“Tarvuzning morfologiyasi, lalmi maydonlar tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari, tuproqni tarvuz ekishga tayyorlash va plyonka yotqizish texnologiyasi hamda mashinasining konstruktiv sxemasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tarvuzning morfologiyasi, plyonka ostida poliz ekinlari yetishtiriladigan lalmi maydonlar tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari o‘rganish natijalari, tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizish texnologiyasi hamda uni amalga oshiradigan mashinaning konstruktiv sxemasi keltirilgan.


Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala tumanida har yili 20-40 ming gektar lalmi maydonlarda plyonka ostida tarvuzning Dolby F1, Hollar F1, Red Star F1 va Super crimson F1 turlari ko'chatlab ekish orqali yetishtiriladi. Tarvuzning ildiz tizimi o‘q ildiz va yon ildizlardan iborat bo‘ladi. O‘q ildiz 1,0-1,2 m bo‘lib, namlikka qarab 1,5 metr chuqurlikkacha tushib boradi. Ildiz tizimi yon ildizlari bilan birgalikda 7-10 m³ gacha tuproqni qamrab oladi. O‘shish davrida ildiz bo‘g‘zining diametri 2-2,5 sm gacha yetadi, 1 m chuqurlikda o‘q ildizning diametri 0,4 sm ni tashkil qiladi.

Ko‘kdala tumanining lalmi maydonlari qumoq va bo‘z tuproqlardan iborat. Begona o‘tlar kam o‘chraydi. O‘lchami 0,04 mm dan katta bo‘lgan qumli fraksiya miqdori 32-37% gacha yetadi. Changsimon fraksiya miqdori esa (0,04-0,01 mm) 17% dan 28% gacha o‘zgarib turadi. Mexanik tarkibiga ko‘ra 0,97 g/sm³ dan 1,33 g/sm³ gacha zichlikka ega. Yer osti suvlari 15-18 m chuqurlikda joylashgan.

Tadqiqotlarda lalmi maydonlarda plyonka ostida tarvuz yetishtirishda tuproqni ekishga tayyorlashning boshlanishidan har 15 kun davomida takroriy ravishda tuproqning fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganildi. Poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish uchun mo‘ljallangan lalmi maydonlarda plyonka yotqizishdan oldin o‘rtacha namligi, zichligi va qattiqligi mos ravishda ekishni boshlanishida 23,7%, 1,08 g/sm³ va 1,16 MPA ni, 15 kundan keyin esa 21,16%, 1,10 g/sm³ va 1,19 MPA ni, 30 kundan

keyin esa 19,6%, 1,14 g/sm³ va 1,22 MPa va 45 kundan keyin 18,8%, 1,16 g/sm³ va 1,25 MPa ni tashkil qildi. Tuproqning 45 kun davomidagi namligi dastlabki namlikka nisbatan 20,2-20,6% gacha kamayishi va bu namlik kamayishining 60-70% foizi 30 kun mobaynida ro‘y berishi hamda tuproqning qattiqligi esa ekishni boshlanishidagi qattiqlikka nisbatan 3,6-9,9% gacha oshishi va 1,19-1,22 MPa ni tashkil etishi aniqlandi.

Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizish texnologiyasida quyidagi texnologik jarayonlar bir o‘tishda bajariladi: poliz ko‘chatlari ekiladigan yo‘laklar bo‘yicha o‘qyoysimon panja qamrash kengligiga teng bo‘lgan




1-rasm. Poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish uchun tuproqni tayyorlash, sug‘orish shlanglari va plyonka yotqizish texnologiyasi

b_n kenglikda va $a_n=10-12$ sm chuqurlikda tuproq yuza yumshatiladi va qiya tutqichli yumshatkich yordamida chuqur yumshatiladi (1,a-rasm); ishlov berilgan xududning o‘rta qismi tekislagich-zichlagich yordamida tekislanadi va zichlanadi (1,b-rasm); tekislab-zichlangan xududning ikki tomonida plyonkaning chetki

qismlarini ko‘mish uchun tekis disklar yordamida ariqchalar hosil qilinadi (1,v-rasm); tekislab-zichlangan xududning ustida rezina g‘ildiraklar yordamida 140 sm kenglikdagi plyonka yotqiziladi (1,g-rasm); yotqizilgan plyonkani chetki qismlari sferik disklar yordamida ko‘miladi (1,d-rasm).

Taklif etilgan texnologiyani amalga oshirish uchun tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (2-rasm). Mashina rama 1, osish qurilmasi 2, o‘qyoysimon panja 3, “paraplau” turidagi qiya tutqichli yumshatkich 4, tekislagich-zichlagich 5, ariqcha hosil qiluvchi tekis disk 6, tomchilatib sug‘orish shlanglarini yotqizadigan qurilma 7, plyonka chetki qismlarini ariqchaga yotqizadigan qurilma 8 va plyonka chetki qismlarini ko‘mib ketadigan sferik disk 9 dan tashkil topgan. O‘qyoysimon panjalar ko‘chatlar ekiladigan yo‘lakchada mayin tuproq qatlami hosil qiladi, qiya tutqichli yumshatkichlar ekish hududiga chuqur ishlov beradi.



1 – rama; 2 – osish qurilmasi; 3 – o‘qyoysimon panja; 4 – qiya tutqichli ishchi organlar; 5 – tekislagich-zichlagich; 6 – ariqcha hosil qiluvchi tekis disk; 7 – tomchilatib sug‘orish shlanglarini yotqizuvchi qurilma; 8 – plyonka chetki qismlarini ariqchaga yotqizuvchi qurilma; 9 – plyonka chetki qismlarini ko‘madigan sferik disk

2-rasm. Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaning konstruktiv sxemasi

Dissertatsiyaning “Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaning tuproqqa ishlov berish qismini parametrlarini asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida mashina tuproqqa ishlov berish qismining asosiy ishchi organlarining parametrlarini asoslashga doir nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

O‘qyoysimon panjaning asosiy parametrlari quyidagilardan iborat: qanotlarining ochilish burchagi 2γ va uvalash burchagi α . Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, $\alpha=30^\circ$ va $2\gamma=65^\circ$ ga teng deb qabul qilindi.

Qiya tutqichli ishchi organning parametrlariga quyidagilar kiradi: ishchi

organning balandligi - H , mm, tutqichning ko'ndalang-tik β_k va bo'ylama-tik tekisliklardagi qiyalik burchagi β_b , °, iskananing uvalash burchagi - α_i , °; - iskananing eni - b_i , cm; ishchi sirtining uzunligi - l_i , cm; i_i - iskana tig'ining o'tkirlanish burchagi, °; i_u - ustunni o'tkirlanish burchagi, °. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, $\beta_k = 45^\circ$ va $\beta_b = 18^\circ$ ga teng deb qabul qilindi.

Qiya tutqichli ishchi organning balandligini quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi

$$H = h_1 + h_2 + a_{\max}, \quad (1)$$

bunda h_1 - ramaning pastki tekisligidan qappaygan tuproqqacha bo'lgan masofa, m; h_2 - qappaygan tuproqning maksimal balandligi, m; a_{\max} - maksimal ishlov berish chuqurligi, m.

Bajarilgan hisoblarga ko'ra, $h_1 = 30$ sm, $h_2 = 8,75$ sm va $a_{\max} = 35$ sm bo'lganda, qiya tutqichli ishchi organning balandligi $H = 750$ mm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

Qiya tutqichli ishchi organning iskanasi kengligi kritik kesish chuqurligidan kelib chiqqan holda G.V.Plyushyev tomonidan taklif qilingan formulaga asosan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi

$$b \geq \frac{a(m + ctg \alpha_n)}{0,1 \frac{[\sigma_s]}{[\tau_k]} (1 + 3tg \xi) - n}, \quad (2)$$

bunda a - qiya tutqichli ishchi organning maksimal ishlov berish chuqurligi, m; σ_s - tuproqni ezilishga solishtirma qarshiligi, Pa; τ_k - tuproqni uzilishga vaqtinchalik solishtirma qarshiligi, Pa; ξ - tuproq tomonidan qiya tutqichli ishchi organ iskanasiga ta'sir etuvchi qarshilik kuchlari teng ta'sir etuvchisining gorizontga nisbatan og'ish burchagi, °; m va n - tuproqning fizik-mexanik xossalari bog'liq bo'lgan o'lchov birliksiz koeffitsiyentlar; α_n - iskananing tuproqqa kirish burchagi, °.

Bajarilgan hisoblarga ko'ra, $a_{\max} = 35$ sm; $\sigma_e = 1,44 \cdot 10^6$ Pa; $\alpha_n = 20^\circ$; $\tau_k = 2 \cdot 10^4$ Pa; $\xi = 15^\circ$; $m = 4,2$; $n = 2,5$ bo'lganda qiya tutqichli ishchi organning iskanasi kengligi $b = 5$ sm dan kam bo'lmasligi aniqlandi.

Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, iskananing uvalash burchagi $\alpha_i = 20^\circ$, iskana tig'ining o'tkirlanish burchagini $i_i = 15^\circ$, ustunning o'tkirlanish burchagini $i_u = 30^\circ$ va ishchi sirtining uzunligi $l_i = 20$ sm ga teng deb qabul qilindi.

O'qyoysimon panja tumshug'idan qiya tutqichli ishchi organ iskanasi tumshug'igacha bo'lgan bo'ylama masofa l_1 qiya tutqichli ishchi organ bilan ishlov berilayotgan tuproqning deformatsiyalanish xududi uning oldidagi o'qyoysimon panjaning konstruktiv elementlariga yetib bormasligi shartidan aniqlandi

$$l_1 \geq l_n + S_b = l_n + (a - h_u) ctg \psi_1, \quad (3)$$

bunda l_n - o'qyoysimon panjaning uzunligi, m; h_i - tuproq palaxsasini qiya tutqichli ag'dargichsiz ishchi organ iskanasining ishchi sirti bo'ylab ko'tarilish balandligi, m; α_u - ishchi organ iskanasining tuproqqa kirish burchagi, °; φ_1 va φ_2 - tuproqning tashqi va ichki ishqalanish burchaklari, °.

Bajarilgan hisoblarga ko'ra, $l_p = 0,2$ m, $a_{\max} = 35$ sm, $h_u = 0,068$ m, $\alpha_u = 20^\circ$, $\varphi_1 = 30^\circ$ va $\varphi_2 = 40^\circ$ bo'lganda o'qyoysimon panja tumshug'idan qiya tutqichli ishchi

organ iskanasi tumshug'igacha bo'lgan bo'ylama masofa kamida $l_1=482$ mm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

Qiya tutqichli ishchi organlar orasidagi minimal bo'ylama masofa L oldingi qiya tutqichli ishchi organning iskanasi ta'sirida tuproq zarralari ko'tarilib egat tubiga tushgandan so'ng keyingi qiya tutqichli ishchi organning iskanasi ta'sir ko'rsatishi shartidan aniqlandi

$$L \geq \frac{V_u}{g \cos \varphi} \left[1 - \frac{\sin \alpha_u}{\cos \varphi} \sin(\alpha_u + \varphi) \right] \times \{ V_u \sin \alpha_u \cos(\alpha_u + \varphi) + \sqrt{V_u^2 \sin^2 \alpha_u \cos^2(\alpha_u + \varphi) + 2gh_u \cos^2 \varphi} \} + l_u \cos \alpha_u. \quad (4)$$

bunda V_i – qiya tutqichli ish organining ilgarilanma harakat tezligi, m/s; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; φ – tuproqni ishqalanish burchagi, °; l_i – chuquryumshatkich iskanasining uzunligi, mm.

Bajarilgan hisoblarga ko'ra, $V_i=1,7$ m/s, $g=9,81$ m/s², $\varphi=30^\circ$, $\alpha_i=20^\circ$, $h_i=68$ mm va $l_i=20$ mm bo'lganda, qiya tutqichli ishchi organlar orasidagi minimal bo'ylama masofa $L \geq 507$ mm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaning tuproqqa ishlov berish qismining tortishga qarshiligini aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi

$$P = 2ka_n b_n + n_1 [(a^2 - h_c^2) \text{ctg} \psi_2 + ab_u] (K + \varepsilon_1 V^2) + n_2 [(a - h_c) 2 \text{ctg} \psi_2 + b_n (a - h_c) + \frac{3}{2} h_o^2 \text{ctg} \psi_2 - (a - h_c) h_o \text{ctg} \psi_2 + (2h_o - a + h_c)(a - h_c - h_o) \text{ctg} \psi_2 + (B_k + 2H_k \text{ctg} \beta_k - b_u) h_c] (K + \varepsilon_1 V^2) \quad (5)$$

Bajarilgan hisoblarga ko'ra, $k=1,6 \cdot 10^4$ Pa; $a_p=0,1$ m; $b_n=0,25$ m; $n_1=2$; $n_2=2$; $a=0,35$ m; $h_c=0,09$ m; $\beta_k=45^\circ$; $\psi_2=45^\circ$; $b_i=0,05$ m; $\varphi=30^\circ$; $K=0,65 \cdot 10^3$ Pa; $\varepsilon_1=2 \cdot 10^2$ N·s²/m⁴; $V_k=0,6$ m; $h_o=4,7$ sm; $H_k=33$ cm bo'lganda, 4-6 km/h harakat tezligida tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashinaning tuproqqa ishlov berish qismining tortishga qarshiligi 7,9-11,3 kN oralig'ida bo'lishini ko'rsatdi.


Yuqorida keltirilgan parametrlarni ratsional qiymatlarini aniqlash uchun maxsus tajribaviy laboratoriya-dala qurilmasi yasaldi.

O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qiya tutqichli ishchi organning balandligi 750 mm, ko'ndalang-tik tekislikdagi qiyalik burchagi 45°, bo'ylama-tik tekislikdagi qiyalik burchagi 18°, iskanasining kengligi 5 sm, qiya tutqichli ishchi organlar orasidagi bo'ylama masofa 58,56-59,35 sm, ko'ndalang masofa esa 61,11-62,2 sm bo'lishi tuproqqa kam energiya sarflagan holda sifatli ishlov berilishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning “**Tuproqni poliz ekinlari ekish uchun tayyorlash bilan birga plyonka yotqizadigan mashina tekislagich-zichlagichining parametrlarini asoslash**” deb nomlangan to'rtinchi bobida mashina tekislagich-zichlagichining asosiy

parametrlarini asoslashga doir nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Tekislagich-zichlagichning asosiy parametrlari quyidagilardan iborat: α_1 – tekislagichning pastgi qismini gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °; α_2 – tekislagichning yuqori qismini zichlovchi pastgi qismiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °; l_0 – tekislagich-zichlagichni pastgi zichlagich qismining uzunligi, sm; l_1 – tekislagich-zichlagichni yuqori qismining uzunligi, sm; H_t – tekislagich-zichlagichning balandligi, sm; β_p – pichoq oldi qismining gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, ° (3-rasm).



3-rasm. Tekislagich-zichlagichning asosiy parametrlari

Tekislagich-zichlagichning pastgi qismini gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi α_1 va tekislagich-zichlagichning yuqori qismini zichlovchi pastgi qismiga nisbatan o‘rnatilish burchagi α_2 ni quyidagi ifodalar bo‘yicha aniqlandi

$$\alpha_1 = \varepsilon = \frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_{1(o')}}{2}, \quad (6) \quad \alpha_2 = \beta < \frac{3\pi}{4} - \frac{\varphi_{1(o')}}{2}, \quad (7)$$

bunda ε – tekislagich-zichlagich pastgi qismining gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °; $\varphi_{1(o')}$ – tuproq (o‘tlar)ni tekislagich-zichlagich ishchi yuzasiga ishqalanish burchagi, °; β – tekislagich-zichlagichni gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °.

Bajarilgan hisoblarga ko‘ra, $\varepsilon=25^\circ$; $\pi =3,14$; $\varphi_{1(o')}=36-40^\circ$; $\beta=153^\circ$ bo‘lganda, $\alpha_1=25-27^\circ$ va $\alpha_2=153-155^\circ$ oralig‘ida bo‘lishini ko‘rsatdi.

Tekislagich-zichlagichni pastgi zichlagich qismining uzunligi l_0 qo‘yidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi

$$l_0 = ka(1 - \frac{\rho_0}{\rho_m})ctg \alpha_1, \quad (8)$$

bunda k – tuproqning qappayishini hisobga oluvchi koeffitsiyent; a – tekislagich-zichlagichni ishlov berish chuqurligi, sm; ρ_0 – tekislagich-zichlagich o‘tishidan oldin

tuproqning zichligi, g/sm^3 ; ρ_m – tekislagich-zichlagich o‘tgandan keyin tuproqni talab qilingan zichligi, g/sm^3 .

Bajarilgan hisoblarga ko‘ra, $k=1,25$; $a=4$ sm; $\rho_0=0,95$ g/sm^3 ; $\rho_m=1,18$ g/sm^3 ; $\alpha_1=25^\circ$ bo‘lganda, tekislagich-zichlagichni pastgi zichlagich qismining uzunligi $l_0=9,81$ sm ga teng bo‘lishini ko‘rsatdi.

Tekislagich-zichlagichni yuqori qismining uzunligi l_1 ni aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi

$$l_p = \sqrt{\frac{4h_{ur}h_0\text{tg}(\alpha + \varphi)\text{ctg}\alpha_2}{\pi[\text{ctg}\mu - \text{ctg}(\alpha_2 - \alpha_1)]}} + h\left(1 - \frac{\rho_0}{\rho_m}\right) - h_0\text{ctg}\alpha_2, \quad (9)$$

bunda h_{ur} – tekislagich-zichlagich bilan tuproqni ezish qalinligi, sm; h – tekislagich-zichlagich o‘tishidan oldin ishlov berilgan qatlam qalinligi, sm; μ – tuproqning tabiiy qiyalik burchagi, $^\circ$; h_0 – tekislagich-zichlagich pastgi qismini tuproqqa botish chuqurligi, sm.

Bajarilgan hisoblarga ko‘ra, $h_{ur}=8,16$ sm; $h=30$ sm; $\rho_0=0,95$ g/sm^3 ; $\rho_m=1,18$ g/sm^3 ; $\alpha_1=25^\circ$; $\varphi=30^\circ$; $\pi=3,14$; $\mu=30^\circ$; $\alpha_2=153^\circ$; $h_0=4,5$ sm bo‘lganda, tekislagich-zichlagichni yuqori qismining uzunligi $l_1=13,21$ sm ga teng bo‘lishi aniqlandi.

Tekislagich-zichlagichning balandligi H_t ni uning yuqori qismidan tuproqni oshib o‘tishini bartaraf qilish shartidan qo‘yidagi ifoda olindi

$$H_t \geq \sqrt{\frac{4h_{ur}l_d}{\pi[\text{ctg}\mu - \text{ctg}(\alpha_2 - \alpha_1)]}} + h\left(1 - \frac{\rho_0}{\rho_m}\right), \quad (10)$$

bunda l_d – tuproq deformatsiya xududini o‘rtacha uzunligi, sm.

Bajarilgan hisoblarga ko‘ra, $h_{ur}=8,16$ sm; $l_d=8,56$ sm; $\pi=3,14$; $\mu=30^\circ$; $\alpha_2=153^\circ$; $\alpha_1=25^\circ$; $h=30$ sm; $\rho_0=0,95$ g/sm^3 ; $\rho_m=1,18$ g/sm^3 bo‘lganda tekislagich-zichlagichning balandligi $H=27,31$ sm ga teng bo‘lishi aniqlandi.

Tekislagich-zichlagichni pichog‘i old qisminiing gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi β_p uning tig‘i bilan kesaklar va o‘tlarni sirpanib kesilishi shartidan qo‘yidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi

